



**TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH
VA HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH**

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya
hisobi va auditi kafedrası o'qituvchisi*

Boykabulova Iroda Jontemir qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti BI-124 guruh talabasi

Toshboyeva Sabrina

Annotatsiya:

Ushbu maqola O'zbekiston bank tizimidagi tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari va ularni takomillashtirishga bag'ishlangan. Tadqiqot maqsadi banklardagi buxgalteriya hisobida va hisobotlarini tayyorlashda mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, buxgalteriya hisobi ,aktiv va passiv ,balans, hisobot turlari*

Аннотация:

Данный статья посвящён особенностям организации бухгалтерского учёта в коммерческих банках банковской системы Узбекистана, а также вопросам его совершенствования. Цель исследования заключается в выявлении существующих проблем в бухгалтерском учёте и подготовке финансовой отчётности в банках, а также в разработке путей их устранения.

Ключевые слова: *коммерческие банки, бухгалтерский учёт, активы и пассивы, баланс, виды отчётности.*

Abstract:

This article is devoted to the specific features of organizing accounting in commercial banks within the banking system of Uzbekistan, as well as to its improvement. The aim of the research is to identify existing problems in banking accounting and financial reporting, and to develop ways to eliminate them.



Keywords: *commercial banks, accounting, assets and liabilities, balance sheet, types of financial reporting.*

Kirish

Tijorat banklarida hisob siyosatini to'g'ri yuritish – moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish hamda risklarni minimallashtirishda muhim omil hisoblanadi. Hisob siyosati – bu bank faoliyati davomida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish va tartibga solish uchun qo'llaniladigan qoidalar va usullar to'plamidir. Ushbu siyosatni takomillashtirish bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va moliyaviy ishonchni oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hisob siyosatida risklarni boshqarish tizimi ham muhim o'rin egallaydi. Bank o'zining aktivlari va majburiyatlarini, jumladan, kreditlar va depozitlar bo'yicha risklarni aniq baholab, ular uchun zaxira ajratish tartiblarini belgilashi zarur. Bu esa kutilmagan moliyaviy yo'qotishlar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda hozirgi kunda Markaziy bank va tijorat banklaridan tashkil topgan bank tizimi faoliyat yuritmoqda. Respublika bank tizimini izchil isloh qilish orqali uning barqarorligi va mustahkamligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada bank tizimi tomonidan yuqori ko'rsatkichlarga erishilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning asosiy yakunlari va 2024-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidlagan edilar:

"So'nggi yillarda tijorat banklarining umumiy kapitali va aktivlari sezilarli darajada o'sdi. 2023-yil 1-iyul holatiga banklarning jami aktivlari 576 655 mlrd. so'mni tashkil etgan. Bank tizimining barqarorligi mustahkamlanib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida 35 ta bank faoliyat yuritadi. Ularning aksariyati "Fitch Ratings", "Moody's" va "Standard va Poor's" kabi yetakchi xalqaro reyting agentliklarining 'barqaror' degan yuqori reyting bahosini olishga muvaffaq bo'ldi."



Yuqoridagi raqamlar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sir doirasi keng. Bank operatsion buxgalteriya hisobi esa ushbu jarayonda banklar barqarorligini oshirish hamda qabul qilinayotgan moliyaviy qarorlarning maqbulligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Ushbu maqolada bank operatsion buxgalteriya hisobi tizimining O'zbekistondagi hozirgi holati tahlil qilinadi va bank tizimida moliyaviy shaffoflik va xarajatlarni nazorat qilish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Banklarda buxgalteriya hisobi avvalo, uning korxonalar, budjet va boshqa kredit muassasalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobidan tubdan farq qiladi. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish boshqa korxonalar va tashkilotlarnikiga qaraganda o'zining operativligi tufayli ajralib turadi. Har kuni soat 16-00 gacha operatsion kun hisoblanadi. Jumladan, bizning respublikamizda xalqaro andozalarga to'la javob beruvchi zamonaviy elektron to'lov tizimi ishlab turibdi. Hozir bank hisobvaraqlari orqali to'lovlar naqd pulsiz hisob-kitoblar shaklida o'ta qisqa vaqt ichida amalga oshirilmoqda. Ayniqsa aholining plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz to'lovlari hajmi to'xtovsiz o'sib bormoqda

Mavzuning dolzarbligi

Banklar va bank faoliyati to'grisida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan, "bank – tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan quyidagi faoliyat turlari majmuyini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir: – yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlar qabul qilish hamda qabul qilingan mablag,lardan tavakkal qilib kredit berish yoki investitsiyalash uchun foydalanish; – to'lovlarni amalga oshirish". Bank operatsiyalarini amalga oshirish va uni tashkil etishni nazorat qilish, shuningdek, bankning o'zining, mijozlaridan qabul qilingan va banklararo hisobkitobpul hujjatlarini rasmiylashtirish, ularni qayta ishlash hamda bank operatsiyalarini qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlar tarkibi tushuniladi. Buxgalteriya apparatining ish faoliyatini amalga oshirishda tijorat banklarining bosh buxgalterlarini ma'sul shaxs sifatida tan olish mumkin. Ma'sul shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlari asosida ish ko'radilar va ishni bank filiali rahbari amalga oshiradi. Markaziy bank o'zining banklarni buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot



tuzishni tartibga solib turuvchi normativ hujjatlar ishlab chiqarishda mustaqillikka ega tashkilotdir

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy maqsadi — bank aktivlari va passivlaridan samarali foydalanish, ularni joylashtirish va ko'rsatilgan bank xizmatlari yuzasidan daromad (foizli)larni hamda bank operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha xarajatlar (foizli)ni, shuningdek, byudjet va byudjetdan tashqari to'lovlarni o'z vaqtida hisoblab, yakuniy moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlashdan iboratdir. Bunda talabalar banklarda buxgalteriya hisobini o'rganishda, avvalo, uning korxonalar, byudjet va boshqa kredit muassasalarida yuritiladigan buxgalteriya hisobidan tub farqlarini tushunishlari zarur.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari milliy iqtisodiyotimizning turli tarmoqlariga qarashli korxonalar va tashkilotlarning buxgalteriya hisobi asoslari bilan deyarli o'xshash. Ular O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunida o'z ifodasini topgan. Ushbu qonundan kelib chiqqan holda banklarda buxgalteriya hisobini yuritishning metodologik asoslari quyidagilar hisoblanadi:

- a) xo'jalik faoliyati haqidagi ma'lumotlarni dastlabki hujjatlarda aks ettirish;
- b) xo'jalik operatsiyalarini, bank mulkini puldagi ifodasini belgilash;
- v) barcha operatsiyalarni ikkiyoqlama yozuv asosida guruhlash, bunda yozuvlarni hisobvaraqlar rejasidagi hisob raqamlari asosida olib borish;
- g) hisob-kitob va boshqa operatsiyalar yakunida ma'lum sanaga bank xo'jalik faoliyatiga tavsif berish, ya'ni bank balansini tuzish.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda hisob ishlari hajmini aniqlab olish, buxgalteriya xodimlari sonini, ular o'rtasida hisob ishlari taqsimotini, qo'llaniladigan hisob shaklini, hisob ishlarida hisoblash texnikalaridan foydalanishini belgilab olish kerak bo'ladi.

Hozirgi kunda xalqaro andozalar asosida faoliyat yuritishga harakat qilayotgan qator banklarda buxgalteriya apparatini Front-ofis va Bekofisga ajratish



amalga oshirilmoqda. Tijorat banklari nuqtayi nazaridan buxgalteriya apparatining Bekofis va Front-ofisga boʻlinishining ahamiyati shundaki, Front-ofis mutaxassislari mijozlarga toʻgʻridan-toʻgʻri xizmat koʻrsatadi, Bek-ofis mutaxassislari esa dastlab Front-ofis xodimlari tomonidan boshlangan, mijoz bevosita qatnashishi va mazkur bosqichning tugatilishini kutishi talab etilmaydigan bosqichda operatsiyalarni qayta ishlab, uni nihoyasiga yetkazadi. Natijada, har bir bank operatsiyasi bir-biriga bogʻliq boʻlmagan ikkita boʻlimda amalga oshiriladi.

Moliyaviy hisobotlar bankning moliyaviy holati, natijalari va pul oqimlari haqida aniq va toʻliq maʼlumotni taqdim etishi lozim. Moliyaviy hisobotlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1. *Moliyaviy holat toʻgʻrisida hisobot (balans):* Bank aktivlari, majburiyatlari va kapitalining maʼlum bir sanaga nisbatan holatini aks ettiradi.
2. *Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot:* Bankning daromadlari, xarajatlari va sof foydasini aks ettiradi.
3. *Pul oqimlari toʻgʻrisida hisobot:* Bankning pul mablagʻlari oqimi, operatsion, investitsion va moliyalashtirish faoliyati doirasidagi naqd pul tushumi va chiqimlarini koʻrsatadi.
4. *Oʻz kapitalidagi oʻzgarishlar toʻgʻrisidagi hisobot:* Bank kapitalida sodir boʻlgan barcha oʻzgarishlarni aks ettiradi.
5. *Izohlar va qoʻshimcha maʼlumotlar:* Bank moliyaviy hisobotlarida keltirilgan maʼlumotlarni izohlovchi va tushuntiruvchi maʼlumotlar.

Bank faoliyatida shunday keng masshtabdagi operatsiyalarni bajarish va xizmatlarni koʻrsatish, albatta buxgalteriya hisobi bilan bogʻliqdir. Yuqorida sanab oʻtilgan operatsiyalarni bajarish jarayonida pul mablagʻlarining harakati va ularning manbalari haqidagi maʼlumotlarni yigʻishda buxgalteriya hisobi katta rol oʻynaydi. Buxgalteriya hisobi maʼlumotlaridan foydalangan holda bankning aktiv va passiv operatsiyalari rejalashtiriladi. Moliyaviy hisobotlarning natijasi bankning moliyaviy holatini koʻrsatadi va bank rahbarlariga bank ishini rivojlantirishda aniq chora va tadbirlar ishlab chiqishga sharoit yaratadi. Shu qabul qilingan siyosat asosida tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi yaratiladi, bu faoliyat bank xodimlarining



kunlik ish jarayonlarida hamda operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda o'z ifodasini topadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining hisob siyosati va moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar bank faoliyatining shaffofligi, ishonchliligi va barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu talablar bankning moliyaviy holati haqida manfaatdor tomonlarga aniq va ishonchli ma'lumot berishni ta'minlaydi, shuningdek, moliyaviy xavflarni boshqarish vabarqaror rivojlanishga yordam beradi. Ushbu talablar bank faoliyatini nazorat qilish, moliyaviy xavflarni boshqarish va manfaatdor tomonlarga real ma'lumotlar taqdim etishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. K.N.Navruzova, N.Karimov,U.Ortiqov. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: Davr.2012y.
2. F.Mullajonov. “O'zbekiston bank tizimi: barqaror rivojlanish, xalqaro mezonlarga erishish yo'lida” “Bozor, pul va kredit” jurnali 2015-yil 1-son.
3. A.Omonov va T.Qoraliyev. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.:IqtisodMoliya.2014y.
4. Banklarning moliyaviy barqarorligi va resurslari etarliligini xalqaro me'yorlar va standartlar talablari asosida baholash va boshqarish: Xalqaro ilmiyamaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2017. 464 b.
5. “Bozor, pul va kredit” jurnali 2017-yil 1-son.
6. Yuldasheva G. Tijorat banklarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish istiqbollari // Moliya va bank ishi. № 4, 2020. – 34-41 b
7. Navro'zova K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 212 b.
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “O'zbekiston”, 2010-yil.